



Times Higher Education
Impact Rankings



WORLD
UNIVERSITY
RANKINGS
ASIA 2025



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI

“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

II

**9-10-sentabr
2025-yil**

Buxoro - 2025



 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

Tel.: (65) 221-29-14
Faks: (65) 221-27-07

E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz
Manzil: Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”
Международная научно-практическая конференция**

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”
International Scientific and Practical Conference**

II

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talabai-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya yo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

Sh.S. Fayzullayev, D.F. Sayfilloyev, H.Q. Esanov	Tomdi qoldiq tog'lari florasida Strigosella Boiss. turkum turlari tarqalishi va xilma-xilligi	197
P.Ў. Хўжаниязов	Хоразм вилояти шароитида лазерли ер текислагичларда текисланган майдонларда шўр ювиш технологиясининг самарадорлиги	200
X.A. Idrisov	Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili	205
5-SHO'BA. FILOLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI, GUMANITAR VA IJTIMOIIY-SIYOSIIY FANLARNI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR		
D.S. O'rayeva, D.Z. Rajabov	Buxoro folklorshunosligi: kecha va bugun	208
B.M. Jo'rayeva, A.A. Kilichev	Hozirgi o'zbek va rus tillarida maqollar qo'llanilishi va maqomi	211
H.O. Safarova	XX asr boshlari Buxoro adabiy harakatchiligida nasrning shakllanishi	213
Q.R. To'xsanov	Mumtoz adabiyotda xalq hikoyatlarining badiiy talqini: rumiy, attor va mashrab misolida	215
D.X. Quvvatova	Shodmon Sulaymon ijodida vatan madhi	219
B.C. Жамилова	Бухоро биздандир, биз Бухородан!	222
D.N. Yuldasheva	Sukut – nolisoniy birlikning kognitiv xususiyatlari	226
N.Z. Bekova	"Ayn ul-hayot" qasidasida me'roj kechasi tasviri	229
Z.Q. Amonova	Mustaqillik bergan imkoniyatlar yoxud Navoiy asarlarini manbalar asosida o'rganish	231
Ш.Н. Ахмедова, Қ.Қахрамон	Адабий танкид методологияси ҳақида баъзи мулоҳазалар	233
A.R. Axmedov	O'zbek tili unlilar tizimida "o"lanish	237
B.E. Kilichev	Filologiyaning zamonaviy muammolari: toponimik katalog va atlas yaratish	238
B.E. Kilichev, M.Sh. Isomiddinova	G'ijduvon tumanining tarixiy toponimlari	240
G.I. Toirova	"Ufq" romanidagi psixolingvistik tafovutlar	242
Г.А.Астанова	"Минг бир кеча" асари: жаҳон адабиёти ва маданиятидаги ўрни	244
M.A. Xudoyqulova	O'zbek tanqidchiligida adabiy bahslarning kompozitsion qurilishi	246
M.Sh. Shirinova	Issues of speech culture in broadcast media	248
N.S. Qodirova	Mustaqillik davri tanqidchiligida uslub yangilanishi (Qodiriyshunoslik misolida)	250
D.R. Sobirova	The anthropocentric paradigm in linguistics and the role of cognitive linguistics within it	252
M.Y. Xojiyeva, Sh.E. Amonova	Tilshunoslikda antroponimik terminlar	254
Ғ.Н. Зикриллаев, Я.Б. Рўзиев	Диалектик материализм ва тилшунослик методологияси	255
M.M. Rakhmatova, J.A. Rakhmonova	Implicature analysis in recent Donald Trump conversations	262
G.Y. Samandarova	O'zbek tilida son komponentli maqollarning tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlari	264
D.Y. Yusupova	So'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi	267
S. Mardonova	O'zbek tili elektron lug'atlaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati	271
N.A. Nazarova	O'zbek antroponimikasiga lingvistik yondashuv	273
R.O. Bobokalonov	Onomastics in French and Uzbek medical language	274
N.K. Abbasova, M.Abdualiyeva	National imagery in English proverbs and its reflection in Shakespearean tragedies	279
Sh.D. Abdullayev, O.I. Abdullayev	O'zbek va Qoraqalpoq tillarida yangi ijtimoiy-siyosiy leksikaning lingvomadaniy tahlili	283
M.Sh. Abdurahimova	Nabi Jaloliddin ijodida urush mavzusi	287
O.I. Adizova	Bolalar o'yinlari orqali adabiyotni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni tatbiq etish	289
R.Sh. Akhmedov	The phenomenon of ideological threats in modern society reflected in asimov's science fiction	292

5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – 398 b.
6. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020.
7. Dilorom Yuldasheva. Nutqiy muloqotda sukutning oʻrni. Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya. Tom 1 № 1 (2020).
8. Dilorom Yuldasheva. Professionalnye frazeologiya (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma
9. Yuldasheva D. N. Silence is an expression of inner speech// AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). – Volume 01, Issue 10, 2023.–P. 230-234.
10. Yusupova D. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241.
11. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.384-389.
12. Yusupov Dildora Yunus qizi. Shoir soʻz aytgani kelar dunyoga...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yoʻliga chizgilar). «Сўз санъати» халқаро журналі. –2021, 1-сон, 4-жилд. –В.: 21-28.

OʻZBEK TILI ELEKTRON LUGʻATLARIDAN FOYDALANISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Mardonova Sarvinov
Buxoro davlat universiteti,
Oʻzbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası oʻqituvchisi,
f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Bugungi kunda deyarli barcha sohada elektron lugʻatlar mavjud boʻlib, ayniqsa, taʼlim sohasida bulardan juda keng foydalanish yoʻlga qoʻyilyapti. Ushbu maqolada oʻzbek tilidagi elektron lugʻatlarga batafsil toʻxtalib oʻtilgan va taʼlim sohasida yanada samarali elektron lugʻatlar yaratish toʻgʻrisidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar: elektron lugʻat, zamonaviy taʼlim, ilm –fan, texnologiya.

Oxirgi bir necha yillardan buyon yurtimizning deyarli har bir sohasida texnologiya barq urib rivojlanib bormoqda, shu bilan birga, taʼlim sohasi ham bundan mustassno emas. Kompyuter texnologiyalarining paydo boʻlishi bilan dasturiy taʼminot yaratuvchilari turli xildagi lugʻatlarning yangi, elektron turini kashf qildilar. “Elektron lugʻat” tushunchasi tilshunoslik fanida soʻnggi yigirma yil mobaynida paydo boʻlgan tushunchadir. Bugungi kunda juda koʻp turdagi elektron lugʻatlar yaratildi. Birinchi navbatda elektron lugʻat nima va uning anʼanaviy lugʻatlardan afzallik tomonlari nimada? degan savollarga eʼtibor qartamiz. Elektron lugʻat – kompyuter yoki boshqa biror bir elektron qurilmadagi lugʻat degan taʼriflar internetning koʻpgina saytlaridagi manbaalarda uchraydi. Axbarot qidiruv tizimiga solingan lugʻatlar toʻplami elektron lugʻatlar hisoblanadi. Texnik jihatdan elektron lugʻat zarur soʻzlarni (soʻz birikmalari, iboralarni) tez qidirib topishga imkon beradigan maxsus kodlashtirilgan maqolalardan iborat kompyuter maʼlumotlar bazasidir. Bu kabi lugʻatlar turli vazifalarga ega va ular shu xususiyati bilan farqlanadi. Ular faqat bir vazifani bajaruvchi (Dalining online izohli lugʻati) va koʻp vazifalarni bajaruvchi (“abby lingvo” lugʻati). Elektron lugʻat atamasi leksikografiya tarixida yangi soʻz boʻlib kirdi va bu sohaning yanada rivojlanishi uchun bir turtki boʻldi. Bu turdagi lugʻatlar anʼanaviy lugʻatlarga nisbatan bir qancha muhim afzalliklarga ega. Elektron lugʻatlar morfologiya va iboralarni qidirish, hamda tarjima yoʻnalishini oʻzgartirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda soʻzni tezlik bilan topishga imkon beradi. Bu lugʻatlar foydalanuvchi uchun juda qulay va mukammaldir. Istagan vaqtda, istagan joyda elektron qurilmangizdan yuklab olib foydalanib bilasiz, ogʻir hajmga ega emas, hech qanday noqulayliklarga duch kelmaysiz. Ularning birdan bir kamchiligi personal kompyuterlarga bogʻliqligi, shuning uchun cheklovlarning mavjudligidir. XXI asr raqamli texnologiyalar asri va bugungi zamon talablaridan biri texnikani va bir necha tilni mukammal bilish hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirda har bir yosh avlodning tilga boʻlgan qiziqishi va talabi juda katta, aynan shu til oʻrganish mobaynida barchimizga lugʻatlarga ehtiyoj tugʻiladi. Shuning uchun biz albatta lugʻat tanlayotganimizda anʼanaviy qogʻoz versiyadagi lugʻatlarga nisbatan, vaqtimizni tejaydigan elektron

lug'atlarga murojaat qilamiz. Elektron lug'atlardan matn ichidagi va undan tashqaridagi so'zlar, iboralar va idiomatik iboralar (leksik birliklar) haqida ham ma'lumotlar olishimiz mumkin. Shu xususiyati bilan ham keng imkoniyatli lug'at deb atash to'g'ridir. An'anaviy lug'atlarga nisbatan elektron lug'atlarning keng imkoniyatlari va afzalliklari quyidagilar:

So'zlarni topish tezligini oshiradi va vaqtni tejaydi;


Lug'at bazasini doimiy to'ldirish mavjud, ya'ni elektron lug'atlar atama va eskirgan so'zlarning xulosalarini muntazam yangilab turishni ta'minlovchi dinamik resursdir. Olimlar bu haqiqatni elektron lug'atlar va an'anaviy lug'atlar o'rtasidagi tub farq bilan alohida ta'kidlashadi;

Elektron lug'atlar moslashuvchan, ya'ni ularning funksionalligi muayyan fan sohasiga (moliya, informatika, tibbiyot, fizika, huquq va boshqalar) moslashtirilishi mumkin;

Elektron lug'atlarda multimedia elementlaridan foydalanish imkoniyatlariga ega.

Bugungi kunda juda mashhur va minglab foydalanuvchilarga ega Hasanboy va Husanboy Abdullayevlar tomonidan loyihalashtirilgan eng ko'p so'zga boy bo'lgan lug'at "WISDOM English Uzbek dictionary" elektron lug'ati hisoblanadi. Ushbu lug'at 70000 dan ziyod inglizcha va 50000 dan ortiq o'zbekcha so'z va iboralarni o'z ichiga oladi, besh yildan buyon har bir so'z Oxford, MacMillan, Collins, Cambridge va Longman kabi ishonchli lug'atlardan foydalanib alohida yondashilgan holda, aniqlik bilan tarjima qilib kelinmoqda. WISDOM elektron lug'atida muayyan bir so'zlarning o'ziga xos Grammatik xususiyatlari, ishlatilish qonun qoidalari mavjud. Foydalanuvchilar so'zlarni ishlatishda xatolarga yo'l qo'ymasliklari uchun so'zlarda Collocations bo'limi tuzib chiqilgan.

Masalan; siz biror so'zni qidirsangiz, ushbu so'z bilan bog'liq misollar ham keltirilgan ushbu lug'atda. Ayrim so'zlarning ta'rifini suratlar orqali ifodalangan tasvirlar ham o'rin olgan. Sinonim, antonimlar yodlash uchun juda qulay va sodda qilib berilgan. Talaffuz, Metafora, Matn, Tafvutlar tushuntirilishi, Predloglar bilan ishlatilishi, Akademik so'zlar, Faol-nofaol so'zlar, Rasmiy-norasmiy so'zlar, sanaladigan –sanalmaydigan otlar, so'z sohasi, sheva va boshqalardan to'g'ri foydalanishni ko'rsatib bergan.



Xulosa qilib aytganda, bu kabi elektron lug'atlar juda ko'p va har birining imkoniyati bir biridan keng va mukammaldir. Ushbu turdagi elektron lug'atlardan foydalanish ta'limning muhim qismini rivojlantirish uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Elektron o'quv lug'atlari o'zida eng muhim ma'lumotlarni qamrab olgan, leksemalarning ham eng zarur jihatlarini ochib berishga qaratilgan va albatta ifoda aniq, lo'nda va qisqa bo'lganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Elektron lug'atlarning yaratilishi til o'rganuvchilari, o'quvchi va o'qituvchilar, tilshunoslar, tarjima faoliyati bilan shug'ullanib kelaytogan mutaxassislar uchun ulkan ko'mak manbaai hisoblanib kelmoqda. Tilshunoslikda elektron lug'atlardan unumli foydalanish o'quvchilar uchun har tomonlama bilim saviyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazariy, amaliy tilshunoslik va til o'qitish metodikasi" mavzusidagi respublika onlayn ilmiy anjumani materiallari. Termiz–2021

2. https://www.researchgate.net/profile/botir-elov/publication/351947468_elektron_lugatlar_tezaurus_ontologiyalar_elektron_ta%27limda_zaruriy_vosi_talar_sifatidA/links

3. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss1/a49